

MFY XODIMLARI FAOLIYATIDAGI IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING AYRIM JIHATLARI

Charos Nuridinovna Umarova

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10716013>

O'zbekiston hududida o'zini o'zi boshqarish tizimi qadim zamonlardan mahalla shaklida rivojlanib kelgan. Osiyo qit'asi va musulmon Sharqda davlat tuzilishi tajribasi va boshqaruvi o'z xususiyatlari va an'alariga ega. Arab istilosi va islom kirib kelishidan oldin paydo bo'lgan mahalla, unchalik katta bo'lmagan, muayyan hududda yashovchi, nafaqat qo'shnihilik munosabatlari bilan, balki ichki xulq-atvor qoidalari, ma'naviy-axloqiy me'yorlar, yuz yilliklar davomida shakllanib kelgan urf-odatlar va an'alar bilan bog'liq odamlarning jamoasi ko'rinishida mavjud bo'lgan[1].

Dunyo hamjamiyatida ham mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga alohida e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, Germaniya, Braziliya, Litva, Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Litva, Ozarbayjon va Qirg'iziston davlatlarida ushbu tuzilmaga ko'plab vakolatlarni berish masalalari ko'rib chiqilmoqda.

Ammo mahalla tizimi faoliyati va vakolatlari, mutasaddilarining huquq va burchlari masalalari hech qaerda bizni mamlakatimiz kabi alohida o'ringa ega emas. Zero O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev aytganlaridek – "Ma'lumki, dunyoda noyob, o'xshashi yo'q mahalla tizimi mustaqillik yillarida aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylandi"[2].

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning samarasi ko'p jihatdan mahalla tizimining barcha bo'g'inlarida mehnat qilayotgan xodimlarning o'z ishiga vijdonan yondashishi, bilim va malakasi, dunyoqarashi hamda tashabbuskorligiga bog'liq. Shu jihatdan hozirgi mahalla fuqarolar yig'ini xodimlarining faoliyatiga chuqurroq nazar tashlasak, kattami, kichikmi, qaysi lavozimda bo'lishidan qat'i nazar, har bir xodim o'z ishiga talab darajasida yondashishi uchun nimalarni bilishi, qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak, degan savol paydo bo'ladi. Chunki, mahalla fuqarolar yig'ini xodimlari faol bo'lmasa, jamiyatda ijtimoiy faollik shakllanmaydi. Mahalla fuqarolar yig'ini xodimlarida tajriba, ko'nikma, mahorat, bilim, aql va idrokning o'rni katta bo'lib, ular o'z qobiliyati, iste'dodini ishga solib izlanadi, shu maqsadda hayotni, odamlarni chuqur o'rganadi. Natijada to'plagan bilimlari va tajribalari asosida o'zi va atrofdagi xodimlar bilan birgalikda kishilarga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida: "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shahardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular uch yil muddatga rais (oqsoqol)ni va uning maslahatchilarini saylaydi"[3], deb belgilangan. Demak, ushbu modda mazmunidan bilamizki, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat boshqaruv organlaridan holi va mustaqil ish yurituvchi organ sifatida o'zaro bog'liqlik va hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi.

Shu o'rinda mahalla fuqarolar raisi rahbar sifatida barkamolligi, qat'iy xarakteri, milliy qiyofasidan tashqari, bir qator qobiliyatlarga ega bo'lishini taqazo etadi. Bu esa o'z navbatida raisning obro' qozonishiga puxta negiz hozirlaydi, lavozimning keyingi bosqichlari uchun imkon yaratadi, istiqbol rejalarini ro'yobga chiqaradi. Rahbar shaxsi quyidagi qobiliyatlarni taqazo etadi: tashkilotchilik qobiliyati, rahbar bozor iqtisodiyoti davrida o'ta uddaburon,

ishbilarmon, muaassasa-korxonaning oldida turgan vazifalarni maqsadga muvofiq, sobitqadamlik bilan bajarishi lozim[4].

Bunda favqulotda yuz bergan muammolarni tezkorlik bilan hal qila bilish; o'rni kelganda maslahatchilar, hokim o'rinbosari, profilaktika inspektori va boshqa xodimlarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda rag'batlantirish, tanbeh berish, e'tiroz bildirish, real va'dalar berish orqali murosaga keltirish; MFY xodimlarining alohida xususiyatlarini e'tiborga olgan holda faoliyatlarini tashkil qilishga odatlanish; ishni ratsional taqsimlash; mahalla istiqboli va aholining ijtimoiy himoyasi uchun hamisha qayg'urish, g'amxo'rlik qilish. Bundan tashqari mahalla fuqarolar yig'ini xodimlari kuchli iroda egasi bo'lishi lozim. Zero, iroda o'zaro bog'liqligi bilan ikkita vazifaning - undovchi va tormozlash vazifasini bajaradi. Undovchi vazifa kishining faolligi bilan taminlaydi. Irodaning undovchi vazifasi bilan uning tormozlash vazifasi faollikning yoqimsiz ko'rinishlarni jilovlashda namoyon bo'ladi. Irodaviy aktning eng muhim bo'g'inlari - qaror qabul qilish va uni ijro yetish ko'pincha alohida hissiy holatning irodaviy zo'r berish sifatida tavsiflanadigan holatni kelib chiqishiga sabab bo'ladi[5]. Kishining irodaviy fazilatlarini va ularning shakllantirishda, individual xususiyatlarda uning kuchi va kuchsizligi individual xususiyatlarining spektrini qayd qiladi. Kuchli irodaga yega bo'lgan kishilar qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'llarida uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf yeta oladilar.

Xulosa qilib aytganda mahalla fuqarolar yig'ini xodimlaridagi irodaning axloqiy tarbiyalanganligi hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Zero xodimlar faoliyati davomida arziyas qiyinchiliklarni bartaraf yetishni odat qilishdan boshlash kerak. Oldingi unchalik katta bo'lmagan qiyinchilikni, vaqt o'tishi bilan ancha katta qiyinchiliklarni muntazam ravishda yengib borib, kishi o'zining irodasini mashq qildiradi va chiniqtiradi; qiyinchiliklarni va to'siqlarni bartaraf etish ma'lum maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladi.

References:

1. Vahobov A. Davlat hokimiyatining mahalliy boshqaruv va o'zini o'zi boshqarish organlari // O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat. – Toshkent.: Adolat, 1995. –B.142 – 143
2. <https://www.mahallakengashi.uz/>
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent.: O'zbekiston, 2015. –B.58
4. Goziyev E.G., Toshimov R. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent.: Sharq, 2001. –B.23
5. Yulchiyeva Z. Boshqaruv psixologiyasi. Toshkent.: Akademnashr. 2021. –B.64